

## SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLAR

*Uzakov Utkir Abdusattarovich*

*Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar Universiteti*

*"Iqtisodiyot va boshqaruv" kafedrasi katta o'qituvchisi.*

*Tel: +998930091466 e-mail: utkir.uzoqov@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, shuningdek savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, qonunlar, Prezidentning buxgalteriya hisobiga oid qaror va farmonlari, buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari bayon qilingan.

**Abstract:** This article describes the regulation of relations in the field of accounting organization, management and reporting, as well as regulatory legal documents, laws, presidential decisions and decrees on accounting, national and international standards of accounting, which regulate accounting in commercial enterprises.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрено регулирование отношений в сфере организации бухгалтерского учета, управления и отчетности, а также нормативные правовые документы, законы, постановления и указы Президента по бухгалтерскому учету, национальные и международные стандарты бухгалтерского учета, которые регулируют ведение бухгалтерского учета в коммерческих предприятиях.

**Tayanch so'zlar:** Buxgalteriya hisobi, savdo korxonalari, qonun, kodekslar, qarorlar, hujjatlar, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, buxgalter,

**Keywords:** Accounting, trade enterprises, the law, codexes, the decisions, documents, national accounting standards, international standards of financial reporting, accountant.

**Ключевые слова:** Бухгалтерский учет, торговые предприятия, закон, кодексы, решения, документы, национальные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты финансовой отчетности, бухгалтер.

### KIRISH

Buxgalteriya hisobning nazariy asoslari kim tomonidan yaratilganligi borasida turli xil fikrlar mavjud. Shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, ikkiyoqlama yozuv tizimidan Shimoliy Italiyaning ayrim savdo markazlarida XIII-XIV asrlarda foydalana boshlangan. Birinchi marotaba buxgalteriya hisobini bir tizimga solish italiyalik olim Luka Pacholi tomonidan amalga oshirilgan. U yozgan kitob "Arifmetika, geometriya summasi, mutanosiblik va nisbatlar haqida ta'limot" deb nomlandi. Ushbu kitob asosan matematikaga bag'ishlangan bo'lib, 1494 yilda nashr qilindi. Matematika faniga bag'ishlangan bo'lishiga qaramasdan, kitobning bir qismi "Hisobvaraqlar va yozuvlar haqida traktat" deb nomlangan. Shuning uchun ham buxgalteriya hisob fani tarixini o'rganuvchilar, bu kitob buxgalteriya hisobning rivojlanishiga asos bo'ldi, deb ta'kidlashadi.

“Buxgalter” atamasi dastlab 1498 yilda, ya’ni Luka Pacholi kitobi nashr qilinganidan 4 yil o’tib, Germaniyada qo’llanila boshlandi. Buck – kitob, halter – tutish, (nemis tilidan) ya’ni so‘zma-so‘z olganda kitob tutuvchi degan ma’noni anglatadi. Bunga Rim imperatori ish yurituvchini buxgalter deb atash xaqida buyruq chiqarganligi sabab bo’ldi. Ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda buxgalteriya hisobi “accounting” deb ataladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Har bir soha kabi buxgalteriya hisobi ham qonun hujjatlari va boshqa buxgalteriya hisobiga oid normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. Demak, buxgalter hisob yuritayotgan paytda buxgalteriya hisobiga tegishli qonun hujjatlariga muvofiq ish yuritishi kerak. Buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish, shuningdek, buxgalteriya hisobotlarini tuzishga tegishli qonun hujjatlari va normativ hujjatlarning bir qanchasini quyida ko‘rib chiqamiz:

**1. Qonun:**

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni 13.04.2016 y. №404

**2. Kodekslar:**

O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi (30.12.2019);

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi (28.10.2022) va boshqalar

**3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari:**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-fevraldagи “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 04-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-292-son Qarori;

**4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori:**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24-avgustdagи “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 507-son Qarori;

**5. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning me’yoriy hujjatlari:**

O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 9-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo’llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida”gi 3400-sonli buyrug‘i

**6. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS):**

Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos;

BHMS №1 “Moliyaviy hisobot va hisob siyosati”

BHMS №2 “Asosiy xo’jalik faoliyatidan tushgan daromadlar”

BHMS №3 “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”

BHMS №4 “Tovar-moddiy zaxiralar”

BHMS №5 “Asosiy vositalar”

BHMS №6 "Ijara hisobi"

BHMS №7 "Nomoddiy aktivlar"

BHMS №8 "Shu'ba xo'jalik jamiyatlariga sarmoyalarni hisobga olish va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar"

BHMS №9 "Pul oqimi to'g'risidagi hisobot"

BHMS №10 "Davlar subsidiyalarining hisobi va davlat yordami bo'yicha ko'rsatiladiga ma'lumotlar"

BHMS №11 "Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlab chiqishlarga xarajatlar"

BHMS №12 "Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish"

BHMS №14 "Xususiy kapital to'g'risida hisobot"

BHMS №15 "Buxgalteriya balansi"

BHMS №16 "Buxgalteriya balansi tuzilgan sanadan keying xo'jalik faoliyatining nazarda tutilmagan holatlari va yuz beradigan hodisalari"

BHMS №17 "Kapital qurilishga oid pudrat shartnomalari"

BHMS №19 "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish"

BHMS №20 "Kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan buxgalteriya hisobi yuritishning soddalashtirilgan tartibi"

BHMS №21 "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnomalar"

BHMS №22 "Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi"

BHMS №23 "Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish"

BHMS №24 "Qarzlar bo'yicha xarajatlar hisobi"

7. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari;

MHXS №1 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash"

MHXS №2 "Aktsiyaga asoslangan to'lov"

MHXS №3 "Biznes birlashuvlari"

MHXS №4 "Sug'urta shartnomalari"

MHXS №5 "Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat"

MHXS №6 "Foydali qazilmalar zaxiralarini qidirish va baholash"

MHXS №7 "Moliyaviy instrumentlar: ma'lumotlarni ochib berish"

MHXS №8 "Operatsion segmentlar"

MHXS №9 "Moliyaviy instrumentlar"

MHXS №10 "Jamlangan (konsolidatsiyalashgan) moliyaviy hisobotlar"

MHXS №11 "Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar"

MHXS №12 "Boshqa tadbirdorlik sub'ektlarida ishtirok etish to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berish"

MHXS №13 "Haqqoniy qiymatni baholash"

MHXS №14 "Ta'rif tuzatishlarini keyinga qoldirish hisobi"

---

MHXS №15 “Xaridorlar bilan shartnomalar tuzish bo‘yicha daromad”

8. Korxonaning ichki normativ hujjatlari:

Korxona hisob siyosati;

Korxonaning ichki nizomlari, yo‘riqnomalar, me’yorlar va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy asoslar asosiy hujjatlar hisoblanishadi. Mana shu asoslarga tayangan holda buxgalteriya hisob va hisobotlari tuziladi va korxonalarni ish faoliyatları yuritiladi. Xususan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasida ta’kidlanganidek, “Ushbu Qonunning maqsadi buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat” [1.1]. Shuningdek ushbu qonunning 2-moddasida ta’kidlanganidek, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir” [1.2]. Korxonalarning soliqqa oid munosabatlarini Soliq Kodeksining 1-moddasida belgilanganidek, “Ushbu Kodeks soliqlar va yig‘imlarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to‘lashga doir munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi [2.1]. Har bitta korxona ish faoliyatida bir nechta xodimlarni ishga oladi, ular bilan mehnat shartnomalari tuzadi, xodimlarni ta’tilga chiqarishadi, umuman olganda xodimlar bilan bog‘liq barcha jarayonlar Mehnat Kodeksiga asosan, xususan uning 1-moddasida bayon qilinganidek, “Ushbu Kodeks xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarining muvozanatini ta’minalash hamda ularni muvofiqlashtirish asosida yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi [3.1]. Shuningdek Prezidentning buxgalteriya hisobiga oid qaror va farmonlari, xususan 2020 yil 24-fevraldagи “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-sон Qarori [4.1] va 2023 yil 04-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-292-sон Qarori [5.1] kabilarni keltirish mumkin. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganlar bilan bir qatorda Vazirlar Mahkamasining moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va uni tushuntirishga oid 2020 yil 24-avgustdagи 507-sон Qarori bilan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ning 1-bobida takidlanguanidek “Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fondi tomonidan qabul qilingan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibini belgilaydi. [6.1]. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 9-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida”gi 3400-soni buyrug‘ida 62 ta ilova ishlab chiqilgan [7.1]. Qolaversa buxgalteriya hisobi milliy standartlarining (BHMS) 1-soni “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”ning umumiyligi qoidalar qismida “Mazkur Buxgalteriya

hisobining milliy standarti (BHMS) "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini normativ tartibga solish elementi bo‘lib hisoblanadi. Mazkur standart boshqa BHMSlar bilan birgalikda qo‘llaniladi" [8.1] deb takidlangan. Bundan tashqari korxonalarning o‘zining ichki normativ hujjatlari ham buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy asoslar sanaladi.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish mumkinki, hozirda yurtimizda buxgalteriya hisobiga oid barcha qonunlar, qarorlar, farmonlar va nizomlar ishlab chiqilgan, hamda ushbu hujjatlar amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Bu hujjatlat buxgalteriya hisobini huquqiy tomondan tartibga solishda asosiy vositalar hisoblanadi.

Qisqacha qilib aytganda, ushbu qonun hujjatlari jamiyatimizni, ishlovchilarning keng imkoniyatlarini yaratish maqsadida, huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlashda va uni bartaraf etishda, ish sifatini yaxshilashda, vaqt ni tejashda va boshqa ko‘plab imkoniyatlar uchun xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi Qonuni 13.04.2016 y. №404, <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>
2. 'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi (30.12.2019), <https://lex.uz/docs/-4674902>
3. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi (28.10.2022), <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-fevraldag‘i "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-4611-son Qarori, <https://lex.uz/docs/-4746047>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 04-sentabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-292-son Qarori, <https://lex.uz/docs/-6591947>
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24-avgustdag‘i "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 507-son Qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-4966554>
7. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 9-dekabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida"gi 3400-sonli buyrug‘i, <https://lex.uz/uz/docs/-6312360>
8. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS), <https://lex.uz/nsbu>
9. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУФОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРКАЛИ СУФОРИЛГАН ОЛМА БОҒЛАРИНИНГ ТУПРОК АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТГИЧЛАРИ. In Proceedings of

International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).

10. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).
11. Xudayev, I. J., & Tojiyev, S. M. (2023). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G 'O 'ZANI SUG 'ORISH TEKNOLOGIYASI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 514-519).
12. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОГРАДНИКОВ. JURNALI, 176
13. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. Интернаука. Science Journal, 7(11).
14. Fazliyev, J. (2018). Modern irrigation methods for gardens. Science, 22, 24-26.
15. Фазлиев, Ж. Ш., & Баратов, С. С. (2014). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛИНИСТОЙ ВОДЫ ПРИ КАПЕЛЬНОМ ОРОШЕНИИ. The Way of Science, (4), 77.
16. Fazliyev, J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING «ИНТЕРНАУКА» Science Journal № 21 (103) June 2019 г.
17. Khudaev, I., & Fazliev, J. (2022). Water-saving irrigation technology in the foothill areas in the south of the Republic of Uzbekistan. Современные инновации, системы и технологии, 2(2), 0301-0309
18. Фазлиев, Ж. Ш. (2017). Боғларда томчилатиб сугориш технологияси. Интернаука, (7-3), 71-73.
19. Худайев , И., & Тожиев , Ш. (2023). БОҒ ВА УЗУМЗОРЛАРДА ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРӢ ҚИЛИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(1). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/220>
20. Фазлиев Жамолиддин, Тожиев Шерзод, & Холиков Шарифбек. (2024). СПОСОБЫ ЭКОНОМИИ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В САДАХ. Uz-Conferences, 1(1), 520–525. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/110>